



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

4. Masakazu S (2005). Umbilical hernia in Japanese black calves: A new treatment technique and its hereditary background. J Live Med, 507: 543-547.
5. Narziyev B.D. Operativ xirurgiya va topografik anatomiya. DARSLIK Toshkent-2023 “Fan ziyosi” nashriyoti.
6. Rahman MM, Biswas D and Hossian MA (2001). Occurrence of umbilical hernia and comparative efficacy of different suture materials and techniques for its correction in calves; Pakistan Journal of Biological Science, 4: 1026-1028.
7. Юнусов, Х., Комилжонов, С., & Федотов, Д. (2024). МОРФОЛОГИЯ ЯИЧНИКОВ У КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА В НЕКОТОРЫЕ ВОЗРАСТНЫЕ ПЕРИОДЫ. Вестник Ошского государственного университета. Сельское хозяйство: агрономия, ветеринария и зоотехния, (1), 74-80.
8. Юнусов, Х. Б., Федотов, Д. Н., Васютенок, В. И., Сафаров, А. А., & Комилжонов, С. К. (2022). Основы перепеловодства и повышения яйценоскости птицы.
9. Федотов, Д. Н., Комилжонов, С. К., & Кучинский, М. П. (2019). Структурно-функциональная характеристика яичников у крупного рогатого скота при применении витаминно-минерального препарата «Антимиопатик».
10. Юнусов, Х. Б., & Комилжонов, С. К. (2025). Влияние витаминно-минерального препарата на обмен некоторых минеральных веществ в крови у крупного рогатого скота.
11. Комилжонов, С. К. (2025). Морфологические изменения фолликулярного аппарата яичника крупного рогатого скота при применении витаминно-минерального препарата.
12. Юнусов, Х. Б., & Комилжонов, С. К. (2024). Особенности морфологических изменений яичников при их гипофункции у коров.

QORAQALPOG’ISTONDA OTLARGA GASTROFILYOZ IMAGOSINING PATOLOGIK TA’SIRINI BAHOLASH

Erimov S.F.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish Otlar insoniyat taraqqiyotida muhim o’rin tutgan hayvonlardan biridir. Ular transport, qishloq xo’jaligi, sport, harbiy va sayyohlik sohalarida keng foydalaniladi. Shuningdek, otlar naslchilik, go’sht va sut ishlab chiqarish yo’nalishlarida ham iqtisodiy va genetik resurs sifatida katta ahamiyatga ega.

So’nggi yillarda Qoraqalpog’iston Respublikasida chorvachilikka, ayniqsa yilqichilik sohasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur yo’nalish aholi turmush darajasini yaxshilash, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash hamda milliy qadriyat va an’analarni asrab-avaylashda muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda yilqichilik tarmog’ini yanada rivojlantirish, ot sportini ommalashtirish va ushbu sohani zamonaviy talablarga mos yo’nalishga aylantirish maqsadida qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Hususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 2017-yil 15-iyundagi PQ–3057-sonli qarori, “O’zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2019-yil 18-fevraldagi PQ–4194-sonli qarori hamda “Yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turini

ommalashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 11-martdagi PQ-5024-sonli qarori ushbu sohaning barqaror taraqqiyoti uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi.

Mazkur hujjatlar otchilik infratuzilmasini rivojlantirish, zotli otlarni ko'paytirish, ot kasalliklariga qarshi ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish va veterinariya profilaktikasida ekologik xavfsiz yondashuvlarni joriy etish imkonini bermoqda. Bu esa mamlakatimizda otchilik tarmog'ining nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ilmiy ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Muammoning dolzarbligi. Otlar organizmi yil davomida turli xil yuqumli va yuqumsiz kasalliklar ta'siriga uchraydi. Bular orasida ichki va tashqi parazitlar bilan bog'liq invazion kasalliklar, ayniqsa entomozlar katta xavf tug'diradi. Otlarda endo hamda ektoparazitlik qiluvchi hashorotlar mavjud va ular hayvonlarning fiziologik holati, ish qobiliyati va mahsuldorligiga salbiy ta'sirini mexanik, toksik va allergik va boshqa yo'llar orqali amalga oshiradi. Shular jumlasiga *Gasterophilus* avlodiga mansub pashshalar va ularning lichinkalari tomonidan qo'zg'atiladigan gastrofilyoz kasalligi ham kiradi.

Mazkur parazitlar otlarning terisi, og'iz bo'shlig'i va oshqozon devorida rivojlanib, ularning shilliq pardalariga ilmoqchalar yordamida yopishadi. Natijada lokal yallig'lanish, eroziya, miaz yaralar, shuningdek, ovqat hazm jarayonining buzilishi va umumiy metabolik disbalans kuzatiladi. Gastrofill lichinkalarining uzoq muddatli parazitlik faoliyati hazm tizimi fiziologiyasini izdan chiqaradi, shilliq qavatlarida morfologik o'zgarishlar yuz beradi. Bu esa ozuqa moddalarning so'rilishini cheklaydi, organizmda surunkali intoksikatsiyani keltirib chiqaradi va immunitet tizimining zaiflashishiga sabab bo'ladi.

Shikastlangan shilliq qavatlar orqali mikroflora va patogen bakteriyalarning kirib borishi natijasida ikkilamchi infeksiyalar — sepsis, gastrit yoki kolit kabi kasalliklar rivojlanadi. Gastrofillarning toksik ajratmalari esa otlarda ishtahaning pasayishi, ich ketish yoki qabziyat, holsizlik va stress reaksiyalarini keltirib chiqaradi. Ayniqsa yaylov sharoitida, bu holatlar hayvonlarning hulq-atvorida salbiy o'zgarishlar, bezovtalik va agressivlikni kuchaytiradi.

Gastrofilyoz otlarning umumiy fiziologik barqarorligini buzib, ularning ish qobiliyatini pasaytiradi va iqtisodiy zarar keltiradi. Shuning uchun ushbu kasallikni erta aniqlash, ekologik xavfsiz davolash va profilaktika usullarini ishlab chiqish veterinariya parazitologiyasining dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Gastrofilyozni o'rganish nafaqat otlar sog'lig'ini saqlash, balki yovvoyi toq tuyoqlilarda ham bioekologik muvozanatni qo'llab-quvvatlash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda yangi avlod antelmint preparatlarini sinovdan o'tkazish uchun ilmiy asos yaratadi.

Materiallar va usullar: Ushbu ilmiy tadqiqot 2025-yil sentabr-oktabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq, Chimboy, Nukus, Qo'ng'iro't, Qorao'zak va Bo'zatov tumanlari hududlarida olib borildi. Tajribalar aholi xonadonlarida boqiladigan hamda tabiiy yaylov sharoitida oziqlanadigan otlar (*Equus ferus caballus*) orasida amalga oshirildi. Tadqiqot uchun jami 102 bosh ot tanlab olindi.

Entomologik kuzatuvlar jarayonida otlarga hujum qiluvchi *Gasterophilus* avlodiga mansub parazit pashshalarning imago bosqichidagi namunalari maxsus to'rli tuzoqlar yordamida tutib yig'ildi. Ushbu pashshalarning biologik faolligi, uchish davri va parazitlik xatti-harakatlarini aniqlash maqsadida kuzatishlar kunning turli soatlarida — ertalab, kunduzi va kechki paytlarida olib borildi.

Otlarda *Gasterophilus* tuxumlari (sirkalari) bilan zararlanish darajasini baholash uchun cho'ponlar va ot boqish bilan shug'ullanuvchi aholining yordamida har bir otning yelka, ko'krak, tizza atrofi hamda yollari diqqat bilan ko'zdan kechirildi. Tuxumlar mavjudligi, ularning joylashish o'rni, soni va rang o'zgarishlari qayd etildi. Zararlangan otlardan namunalar olinib, ular laboratoriya sharoitida mikroskop yordamida tahlil qilindi.

Shuningdek, yig'ilgan pashsha imago va tuxum namunalari entomologik kolleksiya uchun saqlab qo'yildi va morfologik identifikatsiya amaldagi zoologik tasnif mezonlariga muvofiq amalga oshirildi.

Natijalar va muhokama: *Gasterophilus* avlodiga mansub pashshalar otlarda gastrofilyoz kasalligini keltirib chiqaruvchi asosiy entomologik parazitlar hisoblanadi. Ularning biologik taraqqiyot davri to'liq metamorfoz orqali kechib, tuxum, lichinka, g'umbak va imago bosqichlarini o'z ichiga oladi. Urg'ochi pashshalar tuxumlarini ot tanasining ma'lum anatomik sohalariga joylashtiradi; lichinkalar esa alimenter yo'l bilan organizmga o'tib, keyinchalik oshqozon va ichak devorlarida parazitlik qiladi. Lichinkalarning rivojlanish davri ot organizmida 9–10 oy davom etib, bu jarayon otning to'yimli oziqlanishi bilan bevosita bog'liq.

Gastrofil pashshalari ot organizmidan chiqib, tashqi muhitga tushgach, ular taraqqiyotini davom etishi bevosita tabiiy ekologik omillar ta'siriga bog'liq bo'ladi. Ushbu bosqichda hasharotlar metamorfoz jarayonini muvaffaqiyatli o'tashi uchun tuproqning fizik-kimyoviy tarkibi, namlik darajasi, harorat, quyosh nuri miqdori va shamol tezligi kabi omillar muhim ekologik ahamiyat kasb etadi. Gastrofil urg'ochilarining og'iz apparati rudimentlashgan bo'lib, ular oziqlanmaydi va butun energiya zahirasini nasl qoldirishga yo'naltiradi. Shu sababli ularning biologik faolligi yuqori bo'lib, urg'ochilar erkaklari bilan juftlashgach, definitiv xo'jayin-ya'ni otni izlab faol harakat qiladi. Ayrim manbalarga ko'ra, *Gasterophilus intestinalis* urg'ochilari 8–10 km masofagacha uchib, mos xo'jayin hayvonni topish qobiliyatiga ega. Bu ularning yuqori adaptiv imkoniyatga ega ekanini va ekologik barqarorlikka yuqori darajada moslashgan parazit turlar sirasiga kirishini ko'rsatadi.



1-rasm. Otlarning gastrofill tuxumlari bilan zararlanishi

Ot egalaridan olingan anamnestik ma'lumotlarga ko'ra, ot bo'kasi pashshalari asosan avgust oyining oxiridan oktyabr oyigacha bo'lgan davrda faol uchraydi. Ularning soni havo iliq, shamol kuchsiz, quyoshli kunlarda, otlar yaylovda boqilayotgan yoki bog'lab qo'yilgan holda turgan paytlarda ortadi. Cho'ponlar va ot egalari kuzatuvlariga ko'ra, pashshalar otlar tinch holatda turganida, ayniqsa bosh va bo'yin sohasiga yaqinlashadi. Shu paytda hayvonlarda bezovtalik, asabiylik, oldinga yurishni to'xtatish, ba'zida esa hurkib, qochishga urinishi kabi xulq-atvor o'zgarishlari kuzatiladi. Urg'ochi pashshalar otlarning burun atrofiga yaqinlashganida kuchli reflektor qo'rquv holatlari yuzaga keladi, bu esa otning egasiga nisbatan xavfli harakatlar qilish ehtimolini oshiradi.

Entomologik kuzatuvlar natijasida aniqlanishicha, gastrofil pashshalari tuxumlarini otlarning oldingi oyoqlari ichki va tashqi yuzalariga, ko'krakning pastki qismlariga, orqa oyoqlarning tizza bo'g'imi ustki va son ichki qismlariga joylashtiradi. Bunday anatomik sohalar pashshalarning tuxum qo'yishiga qulay bo'lishi bilan birga, lichinkalarning otning yalash harakati

orqali og'iz bo'shlig'iga o'tishini osonlashtiradi. Tuxumlar sarg'ish rangda, jun ildiziga yaqin joylashadi. Ularning rivojlanish sur'ati tashqi muhit sharoitlariga bog'liq bo'lib, 25–30 °C haroratda 5–6 kun ichida lichinkalar chiqishi kuzatilgan.

Tadqiqot davomida faqat 21 ta *G.intestinalis* urg'ochi imagolari maxsus to'rli tuzoqlar yordamida ushlandi. Ular kunduzgi vaqtlarda - havo harorati 21-32 °C oralig'ida, shamol sust sharoitda eng yuqori faollikni ko'rsatdi. Bu holat ularning biologik taraqqiyoti va ekologik moslashuvini aks ettiradi.

102 bosh otda o'tkazilgan kuzatishlar natijalariga ko'ra, otlarning 83 foizida gastrofilyoz tuxumlari bilan zararlanish holati aniqlangan. Invaziyaning intensivligi o'rganilgan otlarda 81 tadan 236 tagacha tuxum yoki lichinka bilan tavsiflanadi. Tumanlar kesimida zararlanish darajasi quyidagicha: Mo'ynoq-84%, Chimboy tumanida 84 %, Qo'ng'iroq — 83 %, Nukus — 81 %, Qorao'zak — 82%, Bo'zatov — 80 %. Eng yuqori ko'rsatkichlar o'simlik qoplami zich, yaqinida suv muhiti mavjud sharoitli hududlarda qayd etildi.

E'tiborlisi shundaki, ayrim hollarda invaziya nisbatan past (81–120 nuxsa tuxum) bo'lishiga ot egalari tomonidan ot tanasining ust qismi mato bilan yopilishi yoki maxsus taroq yordamida junlarning muntazam tozalab turilishi bilan izohlandi. Shu bilan birga, ekologik monitoring natijalari shuni ko'rsatdiki, oktabr oyida ham haroratning ko'tarilishi va shamolsiz kunlarning ko'payishi bilan gastrofilyozning tarqalish darajasi va intensivligi kelgusida ortishi mumkin.

Shu sababli, ot oshqazon bo'kasi pashshalarining biologik taraqqiyotini chuqur o'rganish, ularning fasliy faolligini ekologik omillar bilan bog'liq holda baholash, shuningdek parazit populyatsiyasining dinamikasini doimiy nazorat qilish otlarda gastrofilyozning profilaktikasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa 1. Gastrofilyoz kasalligini qo'zg'atuvchilari murakkab biologik taraqqiyotga ega bo'lib, ularning rivojlanish jarayoni iqlimiy va ekologik omillar (harorat, namlik, shamol tezligi va tuproq tarkibi) bilan bevosita bog'liq. Tadqiqot natijalari bu parazitlarning yuqori ekologik moslashuvchanlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

2. Kuzatuvlarga ko'ra, otlarning 83 foizi gastrofilyoz tuxumlari bilan zararlangan bo'lib, invaziyaning intensivligi 81 tadan 236 tagacha tuxum bilan ifodalandi. Zararlanish darajasi Mo'ynoq, Chimboy, Qo'ng'iroq va Qorao'zak tumanlarida nisbatan yuqori qayd etildi. Bu holat yaylov sharoitining ochiqligi, suv manbalari yaqinligi va shamolsiz kunlarning ko'pligi bilan izohlanadi.

3. Gastrofillarning tuxum qo'yish faolligi va populyatsion dinamikasi otlarning parvarish darajasi hamda mavsumiy iqlim sharoitlariga bevosita bog'liq. Shu bois, otlarda gastrofilyozning oldini olish uchun ekologik monitoringni yo'lga qo'yish, parazitlarning biologik siklini hisobga olgan holda fasliy profilaktika choralarini ishlab chiqish va otlarning gigiyenik parvarishini yaxshilash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2017-yil 15-iyundagi PQ–3057-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 18-fevraldagi PQ–4194-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turini ommalashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 11-martdagi PQ–5024-sonli qarori.
4. Avezimbetov, S., Madetova, M., Madetova, N., & Joldasbaeva, V. (2023). Veterinariyada gemoterapiya. anemiyalar va qon zardobida temirni aniqlash, qon retraksiyasini aniqlash. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 509-516.

5. Avezimbetov Sh. D. Yashirin Surunkali Endometritni davolash usullari va laboratoriya O'rganish // Iqtisodiyot va jamiyat. - 2020. - No 12 (79). - B. 338-341.
6. Cogley, T. P. (1989). Behavior and development of first-instar larvae of *Gasterophilus intestinalis* (Diptera: Oestridae). *Journal of Medical Entomology*, 26(1), 46-51. <https://doi.org/10.1093/jmedent/26.1.46>
7. Dosumbetovich, A. S., Uli, A. D. M., & Abdusalim, A. (2023). Qoraqolpoqston shoroitida mayda uy hayvonlarida nemotoda kasalligining tarqalishi. *Scientific Impulse*, 1(8), 43-47.
8. Dosumbetovich AS va boshqalar. Qoraqalpog'istonda qoramollarda yashirin surunkali endometritni davolashning samarali yo'llari // *Academicia Globe*. – T. 2. – No 05. – 240-244-betlar.
9. Erimov , S., Erimov , F., & Jumanioyozova , J. (2024). Gastrofilyoz - otlar (*equus ferus caballus*) havfli entomoz kasalligi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222253>. *International Scientific and Practical Conference*, 1(1), 95-110. <https://bestjournalup.com/index.php/ispc/article/view/614>
10. Erimov,S., Erimov,F., & Jumanioyozova,J. (2024). Qoraqalpog'iston respublikasi arid iqlim sharoitida otlar gastrofilyozi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222297>. *International Scientific and Practical Conference*, 1(1), 110-116. <https://bestjournalup.com/index.php/ispc/article/view/615>
11. Erimov,S. , Erimov, F., & Jumanioyozova, J. . (2024). Gastrophylosis-horses (*equus ferus caballus*) - haven entomosis. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 3(19), 127–133. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/tafps/article/view/51422>
12. Farhodovich, E. S. (2024). Gastrofilistlar va ekologik resurslar. *dunyoda ta'lim fan va innovatsion G'oyalar* , 56 (5), 186-191.
13. Farhodovich,E. S. (2024). Gastrofilyoz kasalligi qo'zg'atuvchilariga antigelmint dori vositalari ta'siri. *образование наука и инновационные идеи в мире*, 56(5), 181-185.
14. Otranto, D., & Colwell, D. D. (2008). Horses and gastrointestinal parasites: Strongylids and beyond. *Veterinary Parasitology*, 156(1-2), 1-2. <https://doi.org/10.1016/j.vetpar.2008.04.015>
15. Sh A., Taylakov T.I. Paramfistomatoz sistematikasi, diagnostika usullari, epizootologiyasi, patogenezi, kasallikning kelib chiqishi va davolashning yangi usullari // *The American Journal of Veterinariya fanlari va Wildlife Discovery*. – 2020. – T. 2. – No 06. – 1-6-betlar.
16. Shakilov , U., Erimov , S., & O'ktamov , A. (2024). Atlar gastrofilyozi qozg'awtiwshilarina ekologiyaliq faktorlar tásiri: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14219999>. *International Scientific and Practical Conference*, 1(1), 78-84. <https://bestjournalup.com/index.php/ispc/article/view/606>
17. Shakilov , U., Erimov , S., & O'ktamov , A. (2024). Gastrofilyoz keselligi qozg'awtiwshilarina antigelmint dári ónimleri tásiri: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14220032>. *International Scientific and Practical Conference*, 1(1), 84-88. <https://bestjournalup.com/index.php/ispc/article/view/607>
18. Shavkat, A., & Kural, A. (2025). Increasing educational efficiency in higher education through creative approaches. *Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions*, 2(4), 89-92.
19. Zumpt, F. (1965). *Myiasis in Man and Animals in the Old World*. Butterworths.
20. Shavkat, A., Radjabbay, J., & Umidbek, K. (2025). EPIZOOTIOLOGY OF FASCIOLIASIS IN CATTLE IN UZBEKISTAN AND KARAKALPAKSTAN: RESULTS OF A 15-YEAR STUDY AND PATHOLOGOANATOMICAL CHARACTERISTICS. *JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE*, 8(3), 1-6.
21. Shavkat, A., Barlikbayevich, E. A. Q., & Allaniyazovna, P. D. In the Conditions of Karakalpakstan. Sheep Fasciolosis and *Fasciola Gigantica* Were First Found in the Lungs.– 2023.

22. Shavkat, A., Kural, A., & Gayratdin, O. (2025). ORGANIZATIONAL SYSTEM OF PERSONNEL POLICY AIMED AT IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions, 2(4), 98-102.
23. Shavkat, A. va Kural, A. (2025). OLIY TA'LIM MASSASALARIDA TA'LIM SIFATI VA TA'LIM QIMMATINI ORTALASH UCHUN TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TASHKILLASH. Ta'lim sifatini ta'minlashning ilg'or usullari: muammolar va echimlar , 2 (4), 85-88.
24. Dosumbetovich, AS, & Qutlymuratovich, SA, SA Qoraqalpog'istonda qoramollarda yashirin surunkali endometritni davolashning samarali usullari. Academicia Globe , 2 (05), 240-244.
25. АВЕЗИМБЕТОВ, Ш. Д. (2020). МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ И ЛАБОРАТОРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СЕКРЕТНОГО ХРОНИЧЕСКОГО ЭНДОМЕТРИТА. Экономика и социум, (12 (79)), 338-341.
26. Sh, A. va Taylakov, TI (2020). Paramfistomatoz sistemikasi, diagnostika usullari, epizootologiyasi, patogenezi, kasallikning kelib chiqishi va yangi davolash usullari. Amerika veterinariya fanlari va yovvoyi tabiatni kashf qilish jurnali , 2 (06), 1-6.
27. Avezimbetov, S. D., Togaymuradov, M. S., & Bazarbaeva, A. A. (2021). Induction of superovulation in cattle. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1778-1781.
28. Dosumbetovich, A. S., & Komoladdinovich, K. S. (2021). New effective methods of treatment of persistent infertility in cows.
29. Shavkat, A., Kural, A., & Maryam, Y. (2025). THE IMPLEMENTATION MECHANISM OF DIGITAL TRANSFORMATION TO ENHANCE EDUCATIONAL EFFICIENCY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions, 2(4), 93-97.

QORAMOLLAR TRIKHOFTIYA KASALLIGINI O'RGANILGANLIK DARAJASI

Ernazarov D.A., Sultanmuratov O.M.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Qoramollarning trixoftiya kasalligi (*Trichophytosis bovis*) - bu zamburug'li teri kasalligi bo'lib, *Trichophyton verrucosum* nomli dermatofit zamburug'lari tomonidan chaqiriladi. Kasallik asosan yosh hayvonlarda uchraydi va yuqori yuqumli xususiyatga ega. Trixoftiya zoonoz kasallik bo'lib, insonlarga ham yuqishi mumkin. Shu sababli u veterinariya va sog'liqni saqlash tizimi uchun muhim epidemiologik ahamiyatga ega. Kasallik nafaqat hayvonlarning sog'lig'iga, balki iqtisodiy ko'rsatkichlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki trixoftiya bilan kasallangan hayvonlarda teri sifati, sut va go'sht mahsuldorligi pasayadi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda qoramolchilik sanoatining intensiv rivojlanishi bilan bir qatorda, hayvonlarda yuqumli kasalliklar, xususan, zamburug'li teri kasalliklari keng tarqalmoqda. Trixoftiya shular orasida eng ko'p uchraydigan dermatomikozlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, AQSh, Hindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, trixoftiya har yili qoramol orasida 10–30 % uchraydi. Kasallikning keng tarqalishiga asosan gigiyenik sharoitlarning yomonligi, yosh hayvonlarning immunitet pastligi va infeksiya tashuvchilarning mavjudligi sabab bo'ladi. Shu boisdan kasallikni tashxislash, nazorat qilish va profilaktika choralarini takomillashtirish dolzarb ilmiy muammo bo'lib qolmoqda.

Trixoftiya kaslligini o'rganilganlik darajasi. Trixoftiya kasalligi bo'yicha ilk ilmiy izlanishlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yevropada olib borilgan. 1844-yilda nemis olimi